

Abu Homid G‘azzoliyning ma‘naviy merosida ta‘lim va tarbiya masalasi

Turanova Mahliyo

Sharof Rashidov nomidagi

Samarqand davlat universiteti

Falsafa yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

Ilm o‘rganish uni amaliyotga joriy qilish hozirgi davr uchun muhim masalalardan biri hisoblanadi. Har bir sohaga yetuk darajadagi kadrlar yetkazib berish bilan birga nazariyot va amaliyotni jamlashni taqozo etadi. Kasb o‘rganish, uning ahamiyati, farovon turmush poydevori sifatidagi mohiyati hamda va ilmga ega bo‘lishning keng imkoniyatlari borasida azal-azaldan olimlar, tadqiqotchilat, faylasovlar juda ko‘plab asarlar yozishgan. Ana shunday farzand tarbiyasidagi ilm va kasb-korning ahamiyati borasidagi qimmatli manbalardan biri Abu Homid G‘azzoliyning “Ey farzand” asari hisoblanadi. Mazkur ma‘naviy meros namunasi farzandlarimiz ta‘limi va tarbiyasida bugungi kunda ham dasturilamal bo‘la oladi.

G‘azzoliyning “Ey farzand” asari nafaqat kishi hayotida ilmga ega bo‘lishning zarurati xususida, balki, egallangan imga amal qilishning muhimligi borasida ham chuqur ma‘naviy-axloqiy mulohazalar bayon etilgan manbalardan biri sanaladi. Asarda amallarning ilmga asoslanish zaruriyati, ilm esa amalda bo‘lishi lozimligiga oid dalil va misollar keltiriladi. Amalsiz ilm xuddi ruhsiz jasadga qiyoslanadi. Shu o‘rinda, G‘azzoliy qarashlarida amalsiz ilm quidagicha izohlanadi:

Yo‘lidan yurmasdan, najot istarsan

Kema yerda suzganin qayda ko‘rgansan?

Demak, har qanday ilm amaliyot orqaligina haqiqiy mohiyatini to‘la namoyon eta oladi. Shuningdek G‘azzoliy, ilm egallashdagi dastlabki harakatlar biri sifatida Luqmoni Hakimning quyidagi serma‘no mulohazalariga murojaat etadi: “Ey

bolajonim, ziyraklikda xo'roz sendan o'tib ketmasin: saharlari qichqirganida sen uxlab yotgan bo'lmagin". Bu fikrlardan shuni anglash mumkinki, erta uyg'onib, ilm o'rganish, yoxud biror bir kasb-korni egallash sari harakat qilish, inson uchun eng xayrli amallardan biridir. Bu jarayonda esa hattoki, ziyraklikda xo'rozdan ham xushyor bo'lish talab etiladi. Erta uyg'ongan kishining kuni barokatli o'tadi. Ayniqsa, behudaga sarflanmagan, ilm, yoki kasb egallash uchun, foydali amallar uchun boshlangan kuni... Ilm biz uchun, maqsad qilib qo'ygan ezgu rejalarimiz, istak va orzularimizni amalga oshirishimizda eng muhim najot yo'lidir. Bu yo'l eng to'g'ri va ishonchli hisoblanib shu yo'ldan yurib manzilga yetganlar doimo g'olib bo'ladi. Vaholanki, G'azzoliy ma'naviy merosida ham yoshlarga qarata "Ey farzand. Ilm amaldir quruq vosita emas" deya takidlanadi.

Ilmga ega bo'lish mashaqqatli jarayon. Shundan so'ng bizda bitta vazifa bo'ladi u ham bo'lsa egallagan ilmni amalga joriy qilish. Amaliyotga joriy qilinmagan bilim bizga foydasizdir. G'azzoliy ta'biri bilan aytganda, "Ey farzand, amal borasida kasodga uchraganlardan, hollardan xoli bo'luvchilardan bo'lmagin. Aniq ishonginki, quruq ilmning o'zi qo'shinning qo'lidan najot sari tutmaydi". Demak mazkur mulohazalardan kelib chiqib, yana bir bora ta'kidlaymizki, ilmning mohiyati insoniyatga foydalilik imkoniyati orqaligina oshiladi.

Bilimga ega bo'lishga harakatga undash insonlarda ilmga bo'lgan qiziqishlarini uyg'otish murakkab jarayon hisoblanadi. Shu boisdan ham bu borada juda ko'plab nasihatnomalar, pandnomalar, ma'naviy-axloqiy asarlar bitilgan. Abu Homid G'azzoliy "Ey farzand" asari ham nasihat bilan boshlanib, nasihat bilan yakunlangan asarlardan biridir. Jumladan asardagi shunday mulohazalardan biri quyidagicha bayon etiladi: "Ey farzand nasihat qilish oson, uni qabul qilish mushkuldir. Chunki nafsining havosiga ergashuvchi kishi uchun nasihatni qabul qilish achchiqdir. Ular ayniqsa nafsining izzati va dunyo uchun ya'ni safdoshlari va o'zi kabi ilm o'rganuvchilar orasida obro' va daraja topish uchun ilm o'rganadilar.

Bundaylar quruq ilmning o'zini najot topish uchun vasila deb bilib o'zlarini ilmga amal qilishdan bexojat deb hisoblaydilar". Demak, ilmni obro' va martaba uchungina emas, haqiqiy kamolot uchun egallash lozimligi asarda markaziy o'ringa qo'yiladi. Vaholanki ilm, insonni tun o'rab olganida nurga chiqaradigan, cho'kayotganda sohilga tomon yo'naltiradigan, qaror qabul qilishda to'g'ri harakatga yo'naltiradigan bir yo'ldir.

Hozirgi davrda ilm yo'lida maktabgacha ta'limdan boshlab toki oliy ta'limgacha tashkillashtirilayotgan dars jarayonlari o'z natijasini berishi, davlat va jamiyat manfaatlari uchun juda muhim sanaladi. Ana shu dars jarayonlari tashkil etilishida bizningcha, yana bir jihatga alohida e'tibor berilishi lozim. Dars jarayonlari o'quvchilarga kim tomonidan va qanday salohiyatga ega bo'lgan uztoz va murabbiylar tomonidan tashkil etilayotgani muammosi jiddiy yondashuvga asos bo'ladigan masalalardan biridir. Bu borada ham, G'azzoliyning shunday fikri mavjud "Haqiqiy murabbiy misoli nurdir biroq kamyob va noyobdir". Bu mulohazalardan kelib chiqib, shuni aytishimiz mumkinki, har bir ustozda haqiqiy murabbiyda bo'ladigan hislatlar mavjud bo'lgan taqdirdagina, o'quvchi va shogirdlarda bilimga bo'lgan ishtiyoq hamda salohiyat yuqori darajada bo'lishi mumkin. Uztoz uchun eng kerakli bo'lgan hislatlar bu ilm, tafakkur, sabr, xotirjamlik, viqor va sokinlik hisoblanadi.

Xulosa qilib mulohaza yuritadigan bo'lsak:

birinchidan, har bir inson hayotining mazmuni, orzu va istaklarining ro'yobi, turmushining farovonligi ilm va kasb imkoniyatlaridan qay darajada foydalana olish salohiyati orqali belgilanadi;

ikkinchidan, Abu Homid G'azzoliyning ma'naviy merosida bayon etilgan ta'lim va tarbiya borasidagi mulohazalar bugungi zamon yoshlarini ham, ilmga, kasb-korga, kamolotga yetaklovchi asosiy manbalardan biri bo'lib, uning asarlarini

falsafiy-konseptual. Ma'naviy-axloqiy jihatdan tahlil etish muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abu Homid G'azzoliy. Ey farzand. – T.: Munir, 2021.
2. Эргашева М.Х. Таълим тараққиёти: синергетик таҳлил. - Самарқанд, СамЧТИ. 2022.